

To'xtasin Rajabov Ibodovich

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

MUSIQA DARSIDA O'ZBEK XALQ FOLKLOR TURKIMIGA KIRUVCHI BUXORO BOLALAR FOLKLOR QO'SHIQLARINI O'RGAJISH DOLZARB METODIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada umum o'rta ta'limgaktablarining musiqa darslarida o'tiladigan xalq qo'shiqlari ularni ijro uslublaridan foydalanish va Buxoro bolalar folklor qo'shiqlari o'rgatishning metodik uslublari hamda bu qo'shiqlar orqali bolalarni ona vatani uning qo'shiqlariga bo'lgan mexrini ortirish va ularning taxlili haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Kuy, qo'shiq, ijro, xalq ijodi, Buxoro bolalar folklori ijrosi, maxalliy uslub, ta'limgaktab, tarbiya, taxlil.

ОБУЧЕНИЕ БУХАРСКИХ ДЕТЕЙ НАРОДНЫМ ПЕСНЯМ УЗБЕКСКОГО НАРОДНОГО ФОЛЬКЛОРА НА УРОКЕ МУЗЫКИ КАК АКТУАЛЬНАЯ МЕТОДИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы использования народных песен на уроках музыки в общеобразовательных школах, методические приемы преподавания Бухарских детских народных песен, а также анализ любви детей к песням своей Родины через эти песни.

Ключевые слова: Мелодия, песня, исполнительское народное творчество, исполнение Бухарского детского фольклора, местный стиль, образование и воспитание, анализ.

TEACHING BUKHARA CHILDREN FOLK SONGS OF UZBEK FOLKLORE IN A MUSIC LESSON AS AN ACTUAL METHODOLOGICAL PROBLEM

Abstract: The article discusses the use of folk songs in music lessons in secondary schools, methodological techniques for teaching Bukhara children's folk songs, as well as an analysis of children's love for the songs of their Motherland through these songs.

Key words: Melody, song, performance folk art, performance of Bukhara children's folklore, local style, education and upbringing, analysis.

Mamlakatimizda yosh avlodni qo'lllab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyat hayotidagi faolligini oshirish maqsadida o'zining yuksak shijoati, bilim va salohiyati, iste'dod va qobiliyatini namoyon etib, turli sohalarda Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga, uning shon-shuxratini jahon miqyosida yanada yuksaltirishga munosib hissa qo'shadigan, el-yurtimizga mehri va sadoqati, namunali xulqi va odobi hamda vatanparvarlik faoliyatları bilan tengdoshlariga har tomonlama o'rnat bo'ladigan yosh avlodni etkazib berish, ta'limgaktablarning eng asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'zbek xalqining milliy-madaniy qadriyatlari, urf-odatlari, o'zbek xalqi tomonidan yaratilgan boy musiqiy merosni yosh avlodlarimizning ongiga singdirish bizning eng asosiy vazifalarimizdandir.

Yurtimizda ma'naviy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga e'tibor kuchayib, o'sib kelayotgan yosh avlodni shu qadriyatlardan ruhida har tomonlama etuk, ma'naviy yuksak, komil inson qilib tarbiyalash pedagogika fani oldiga turgan muhim vazifalardan biriga aylandi. Shunga ko'ra Buxoro musiqa merosi va uning etuk namoyondalari hayoti, ijodiy faoliyati, umumiyligi o'rta ta'limgaktablarida Buxoro bolalar folklor qo'shiqlarini o'rgatish ta'limgaktablarning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z

tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" deb da'vat etadi.

Bizga ma'lum bo'lishicha, o'zbek xalqining boy musiqa merosi xazinasida katta yoshdagi kishilar dunyoqarashi bilan kichik yoshdagi bolalar ma'naviy olamini o'zida mujassamlashtirgan bolalar folklor qo'shiqlari (aksariyat o'yin bilan uzviy bog'liq holda ijro etiluvchi) ham salmoqli o'rinn tutadi. Bunday qo'shiqlar mazmunida bolalarning o'ziga xos quvnoq, o'yinqaroq, sodda va beg'ubor hayoti, dunyo qarashlari, bolalarbop o'yinlar, aytishuvlar va muayyan voqelik bilan bog'liq jarayonlarni ifoda etilishi bilan ajralib turadi. Bolalar folklor qo'shiqlarini, jumladan, Buxoro bolalar folklor qo'shiqlarini o'rganish va tahsil qilish shuni ko'rsatadiki, ular ham xalq musiqasining ommaviy turlari singari badiiy va g'oyaviy mazmunga ega bo'lib, sodda shakli, ijro uslubi, nihoyatda ixcham, o'yin-raqs xarakteriga egadir. Bunday qo'shiq namunalari o'zining bolalarning ruhiy, aqliy, badiiy tafakkuri, va dunyoqarashiga mos soddaligi, kuylashga oson va qulayligi, bolalar diqqatini o'ziga tez jalb qila olish xususiyatlari bilan ulardan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarda keng foydalanish uchun qulaylik tug'diradi. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim muassasalari hamda umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'quvchi-yoshlarda milliy musiqa san'atimizga qiziqish va ishtiyoq o'yg'otish, bolalar folklor qo'shiqlarini o'rganish, kuylash jarayonida ularning g'oyaviy-badiiy mazmunini anglash, idrok etish, tasavvur etish bilan ularga o'z munosabatini bildira olish, ya'ni tavsif berishga o'rgatib borish, shu asosda bolalarda musiqa san'atining asta-sekinlik bilan jiddiy va murakkab turlari ham ijodiy, faol munosabatni shakllantirish mumkin.

Bu esa bugungi kunda musiqa ta'limi va tarbiyasi uchun mas'ul tarbiyachilar, pedagoglar va to'garaklar rahbarlari oldidagi eng muhim va axamiyatga mollik vazifalardan hisoblanadi.

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari uchun chiqarilgan darsliklar va fan dasturiga ko'plab xalq og'zaki musiqa ijodiyotiga mansub qo'shiq aytimlar kiritilgan. Masalan, 4-sinf darsligida mehnat aytimlari xususida quyidagilar qayd etilgan: o'zbek xalq og'zaki ijodining muhim qismini xalq qo'shiq-aytimlari tashkil etadi. Mavzu va shakli jihatdan xilma-xil bo'lgan aytimlar o'zida xalqimiz hayoti, turmush tarzini ifoda etadi. Shunga ko'ra ularni "Mehnat qo'shiqlari" ("Mehnat aytimlari"), "To'y marosim aytimlari", "Mavsumiy marosim aytimlari" kabi turlarga ajratish mumkin. Mehnat qo'shiqlari – xalq tomonidan er haydash, hosil yig'ish, tegimon tortish, ip yigirish kabi jarayonlarda ijod etilgan va kuylangan. Bajarilayotgan mehnat turiga qarab mazkur aytimlarni chorvadorlik, dehqonchilik va hunarmandchilik qo'shiqlari guruhlariga ajratish mumkin. Xusan, dehqonchilik qo'shiqlari ham o'z mazmuniga qarab turlicha bo'lgan. Chunonchi, er haydash paytida "Qo'sh haydash" (Qo'shchi qo'shig'i) kuylangan bo'lsa, hosil yig'ib olishda "O'rim qo'shig'i" aytilgan. "Xo'p hayda" qo'shig'i esa xirmon yanchishda kuylangan. Hunarmandchilik qo'shiqlari gilam to'qish, do'ppi tikish, charxda ip yigirayotganda aytilgan. ("Xo'p hayda" va "Urchuq" qo'shiqlari nota yozuvni misolida berilgan.) .

Ko'rinish turibdiki, bu erda asosiy g'oya, tushuncha mehnat turlariga oid xalq qo'shiq-aytimlariga qaratilgan. Darslikda shuningdek, qo'shiq janrlar xususida ham ma'lumotlar berilgan bo'lib quyidagilar qayd etilgan: Xalq og'zaki musiqa ijodi mehnat yoki turli marosimlar bilan bog'liq bo'lgan aytimlar ham yuzaga keladi. Qo'shiq, lapar, terma, yalla kabi aytim janrlari shular jumlasidandir. Ular xalq orasida keng yoyilgan bo'lib, ommaviy aytimlar qatoridan o'rinn olgan. Masalan, qo'shiq janriini olaylik. Uni kattayu kichik kuylaydi. Qo'shiq odatda, 7 yoki 8 bo'g'inli she'riy bandlar asosida jo'rsozlarsiz yakkaxon (ba'zan ko'pchilik) tomonidan aytildi. (Misol tariqasida "Oh, layli" qo'shig'i qayd etilgan).

Darslikda shular bilan birgalikda bolalarning "Tomdan tarasha tushdi", "Olatoy", "Chuchvara qaynaydi" singari aytimlari ham qo'shiq janriga misol bo'lishi mumkinligi qayd etilgan bo'lib "Tomdan tarasha tushdi" qo'shig'ining nota matni misol tariqasida berilgan. Shuningdek, lapar, yalla, alla aytimlari, o'tmishdaga bayram va marosim musiqa san'ati, xalq tomosholari musiqasi, milliy xalq cholg'ulari haqida ham mavzular berilgan. O'zbek xalqining uzoq yillik o'tmishi davomida turli bayram, marosimlar hamda urf-odatlar shakllangan bo'lib, ularda xalqimizning dunyoqarashi, taqdiri, orzu-istiklari va ma'naviy dunyosini aks ettiruvchi kuy va ko'shiklar ijro etilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, to'rt faslni o'zida namoyon etuvchi mavsumiy marosimlarga quyidagilar kiradi:

1. Bahor faslida «Navro'z bayrami»;
2. Yoz faslida «Choy momo»,
3. Kuz faslida «Obla baraka»;
4. Qish faslida "Yas-yusup", "Gap-gashtak".

Oshi sofii Buxoro

Naimiy so'zi
Shodmon Sulaymon tarjimasi
To'xtasin Rajabov misiqasi

J=105

A-na osh, a-na osh, a-na osh, so-fi osh.

Naqarot

A-na osh, a-na osh, so-fi osh, so-fi osh. O-shi so-fi yi Bu-xo-ro mis-li bir

gav-har e-rur, Ham a-ziz meh-mon u-chun ming tuh-fa-dan af-zal e-rur. Mis qo-zon

uz-ra ni-goh sol xud-di op-poq marva-rid, Tan-ga quv-vat, dil-ga mal-ham, po-ki-za

Naqarot

di-bar e-rur. O-shi so-fi yi Bu-xo-ro mis-li bir gav-har e-rur, Ham a-ziz meh-mon u-chun

ming tuh-fa-dan af-zal e-rur. Osh-paz us-to Sa-lim-ga yo-g'i-lur ol-qish, du-o, Meh-mon

qad-ri-mi bil-gay, ko'ng-li pok, zar-gar e-rur. Go'sh-tu yog' bir-la gu-ruch-ni tan-la-gay a-lo-si-dan,

Naqarot

Mur-chu garm-do-ri, ma-yiz sol-gay yana za-far e-rur. O-shi so-fi yi Bu-xo-ro mis-li bir

gav-har e-rur, Ham a-ziz meh-mon u-chun ming tuh-fa-dan af-zal e-rur. He-lu-dol-chin-lar qo'shib,

Naqarot

qand-choy tu-tar Mir-zo Liu-sen, Jon-ga ro-hat,dard-ga dar-mon,mis-li hal-voytar e-rur. O-shi so-

fi yi Bu-xo-ro mis-li bir gav-har e-rur, Ham a-ziz meh-mon u-chun ming tuh-fa-dan af-zal e-rur.

A-na osh, a-na osh, a-na osh, so-fi osh. A-na osh, a-na osh, so-fi osh, so-fi osh.



Bul Sha - rif yurt so - fi o - shi o'z-ga joy - da urf e - mas, Ey Na-i miy, bo - i - si ser - meh - na - tu af - sar e - rur.

Naqarot



af - zal e - rur. Ham a - ziz mech - mon u - chun ming tuh - fa - dan af - zal e - rur.

Naqarot:

Oshi sofisiy Buxoro misli bir gavhar erur,
Ham aziz mehmon uchun ming tuhfadan afzal erur.

Mis qozon uzra nigoh sol xuddi oppoq marvarid,
Tanga quvvat, dilga malham, pokiza, dilbar erur.

Naqarot.

Oshpaz usto Salimga yog` ilur olqish, duo,
Mehmon qadrini bilgay ko'ngli pok, zargar erur.
Go'shtu yog` birla guruchni tanlagay a'losidan,
Murchu garmdori, mayiz solgay yana za'far erur.

Naqarot.

Helu dolchinlar qo'shib qandehoy tutar Mirzo Husen,
Jonga rohat, dardga darmon misli halvoytar erur.

Naqarot.

Bilsang oshsiz o'tmagay ko'r kam Buxoro to'ylari,
Turfa noz-ne' matlar ichra ul o'zi sarvar erur.
Bul Sharif yurt sofi o'zga joyda urf emas,
Ey Naimiy, boisi sermehnatu afsar erur.

Naqarot.

Mavsumiy marosim qo'shiqlari deganda, xalqimizning yil fasllari va mehnat mavsumlariga bog'lik holda o'tkazilgan marosimlari hamda shu marosimlarning tarkibiy qismi bo'lgan aytimlari tushuniladi. Mavsumiy marosim qo'shiqlarining eng yorkin namunalari go'zal bahor va undagi asosiy sana - Navro'z bayramiga bog'lik bo'lib, bu faslda ijro etiladigan asosiy toifa namunalari asosan bolalar folklori namunalari tarkibida bizgacha etib kelgan. Ommaviy bayram va marosimlarda musiqa san'ati muhim o'rin tutadi. Bunday tadbirlarni o'tkazishda nog'ora, doira, dovul, surnay, nay, karnay kabi

musiqiy asboblardan keng foydalaniladi. Ayniqsa, Navro‘z bayrami tantanalarida qadim dostonchilik san’atiga murojaat qilinadi.

Xullas, o‘quvchilar 4-sinfga kelib xalq og‘zaki musiqa ijodiyotiga mansub materiallarni o‘rganishni boshlaydi .

Ta’limning ilk davrlaridan bolalarga bunday namunalarni o‘rgatish, ijro ettirish jarayonida ularga og‘zaki an’anadagi milliy folklor musiqasi, uning etakchi janrlari, tuzilishi va an’anaviy ijro uslublari haqida eng zarur tushunchalarni berish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan bo‘lsada, lekin xalq og‘zaki musiqa ijodiyoti namunalari tarixi, ayniqsa bolalar folklor qo‘shiqlarining yuzaga kelish tarixini o‘rganish, ulani tinglash, kuylash xususida juda ko‘p ishlarni amalga oshirilishi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolayotganligini alohida ta’kidlash lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar

- 1.Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. -Тошкент: Ўзбекистон, 2016. - 56 Б.
2. Ражабов. Т. И. Умумий ўрта таълим мактабларида бухоро болалар фольклор қўшиқларини ўргатишнинг илмий-методик имкониятларини такомиллаштириш (1-4-синфлар мисолида). Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.
3. Алавия М. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. – Т.: Фан, 1974. 77 6.4. 4.Сафарова Н. Ўзбек болалар ўйин фольклори табиати. –Т.: Фан. 2008. – 14-б.
5. Rajabov, T. (2022). UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA O ‘ZBEK MUSIQA FOLKLORINI O ‘RGATISH DOLZARAB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. IJODKOR O’QITUVCHI, 2(21), 21-31.
6. Ражабов, Т. И. (2021). Ўкувчи-ёшларга ўзбек миллий мусиқа фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш. Science and Education, 2(11), 1094-1103.
7. Ibodovich T. R. et al. BOSHLAG ‘ICH (1-4 SINFLARDA) MUSIQA TINGLASH FAOLIYATINING PEDAGOGIK AHAMIYATI//Yangi O’zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 214-223.
8. Ibodovich T. R. Xalq qo ‘shiqlari vositasida o ‘quvchilarning ma ‘naviy-axloqiy fazilatlarini shakkantirishning pedagogik asoslari //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 324-332
9. Rajabov, To‘xtasin. “UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA O ‘ZBEK MUSIQA FOLKLORINI O ‘RGATISH DOLZARAB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.” IJODKOR O’QITUVCHI 2.21 (2022): 21-31.
10. Ibodovich, Rajabov Tukhtasin. “The Educational Significance of Children’s Folk Songs in Music Culture Lessons.” European Scholar Journal 2.6 (2021): 139-141.
- 11.Ражабов, Т. И. (2020). Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников. Вестник науки и образования, (5-2 (83)), 34-37.
- 12.Ражабов, Т. И. (2021). Усовершенствование научно-методических возможностей обучения бухарским детским фольклорным песням в средней общеобразовательной школе. Наука, техника и образование, (2-2 (77)), 84-86.
- 13.Ражабов, Т. И., & Ибодов, У. Р. (2020). Обеспечение национального наследия в обучении песням бухарского детского фольклора на уроках музыки. Вестник науки и образования, (21-2 (99)), 55-58.
14. Istat M. R., Ibodovich T. R. O ‘QUVCHILAR MUSIQA TARBIYASIDA BUXORO FOLKLOR QO ‘SHIQLARIDAN FOYDALANISH //Yangi O’zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 224-232.